



DASTLABKI TERGOV VA SURISHTIRUVDA PROKUROR NAZORATI, MUAMMO VA YECHIM

Xoliqov Axror Akmal o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20066786>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 03-may 2026 yil
Ma'qullandi: 05-may 2026 yil
Nashr qilindi: 07-may 2026 yil

KEY WORDS

prokuror nazorati, dastlabki tergov, surishtiruv, qonuniylik, protsessual nazorat, jinoyat-protsessual huquq, inson huquqlari, tergov organlari, nazorat mexanizmi, huquqiy islohotlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada dastlabki tergov va surishtiruv jarayonida prokuror nazoratining o'rni, uning huquqiy asoslari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, tergov organlari faoliyatida uchrayotgan muammolar, xususan, qonuniylikni ta'minlash, protsessual muddatlarga rioya qilish, inson huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq kamchiliklar ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan prokuror nazoratini kuchaytirish, nazorat mexanizmlarini takomillashtirish va amaliyotdagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va yechimlar ilgari suriladi.

Hozirgi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda odil sudlovga erishish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, jinoyat ishlarini yuritishning dastlabki bosqichi — dastlabki tergov va surishtiruv jarayonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur bosqichda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar keyingi sud muhokamasi natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Dastlabki tergov va surishtiruv jarayonlarida qonuniylikni ta'minlashda prokuror nazorati muhim o'rin tutadi. Prokuror ushbu jarayonda tergov organlari faoliyatini nazorat qilish, qonun buzilishlarining oldini olish, shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlash vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, amaliyotda prokuror nazoratining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi bir qator muammolar ham mavjud.[1]

Mazkur maqolaning maqsadi dastlabki tergov va surishtiruvda prokuror nazoratining nazariy-huquqiy asoslarini o'rganish, amaliyotdagi mavjud muammolarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va yechimlar ishlab chiqishdan iborat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dastlabki tergov — bu sudgacha bo'lgan bosqichda dalillarni yig'ish va tekshirish jarayoni bo'lib, uning asosiy vazifasi sodir etilgan jinoyat hamda uni sodir etgan shaxsni aniqlashdan iboratdir. Ushbu jarayonda ishni to'g'ri hal etish uchun muhim bo'lgan barcha holatlar atroflicha o'rganilib, dalillar to'planadi va tahlil qilinadi, shuningdek, muayyan shaxsni jinoyat

sodir etganlikda ayblash masalasi hal etiladi. Dastlabki tergov jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidan keyingi muhim protsessual bosqich hisoblanadi.[2]

Mazkur bosqichda tergov organlari jinoyatning barcha jihatlarini aniqlashi shart: ayblanuvchining shaxsi, uning aybdorlik darajasi, jinoyatning sabablari va motivlari, yetkazilgan zarar miqdori hamda jinoyat sodir etilishiga olib kelgan sharoitlar va omillar. Dastlabki tergovni prokuratura, ichki ishlar organlari hamda davlat xavfsizlik xizmati tergovchilari olib boradi, ayrim hollarda esa bu vazifani prokurorlar ham bajarishi mumkin.

Sud nazoratining dastlabki tergov bosqichiga tatbiq etilishi jinoyat protsessining turli bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni mustahkamlaydi. Natijada nazorat samaradorligi oshib, umumiy maqsadlarning izchil amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Dastlabki tergovning har tomonlama, to'liq va xolisona olib borilishi keyingi sud muhokamasining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Jinoyat protsessining har bir bosqichi o'ziga yuklatilgan vazifalarni qonun talablariga qat'iy rioya qilgan holda o'z vaqtida va to'liq bajarsa, bosqichlar o'rtasidagi bog'liqlik saqlanadi hamda yakuniy natija samarali bo'ladi. Aksincha, dastlabki tergovda yo'l qo'yilgan jiddiy xatolarni keyinchalik bartaraf etish qiyin bo'lib, bu holat sud hukmining bekor qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. Dastlabki tergov sifatiga yakuniy baho odatda sud muhokamasi jarayonida beriladi.

Sud nazorati jinoyat protsessining deyarli barcha bosqichlarida amal qilib, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan. U tergov va sud qarorlarining qonuniyligi, asosliliigi hamda adolatlilikini ta'minlashga xizmat qiladi. Dastlabki tergov jarayonida sud nazorati nafaqat protsess ishtirokchilarining huquqlarini kafolatlaydi, balki dalillarni yig'ish va baholashning qonuniyligini ham nazorat qiladi. Shu jihatdan u odil sudlovni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.[3]

Sud nazoratining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyat sudlov jarayonining samaradorligini oshirish hamda yakunda adolatlilikni sud qarorlarining qabul qilinishiga sharoit yaratish. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, tergovchi, ayrim hollardan tashqari, tergov yo'nalishini mustaqil belgilaydi. Biroq keyingi islohotlar natijasida ayrim tergov harakatlarini amalga oshirish uchun nafaqat prokuror, balki sudning ham roziligi talab etilishi joriy etildi.

Amaliyotni takomillashtirish maqsadida ayrim yangi mexanizmlarni joriy etish taklif etiladi. Jumladan, telefon so'zlashuvlarini eshitish uchun elektron sanksiya tizimini joriy qilish, biroq davlat siri bilan bog'liq ishlar bundan mustasno bo'lishi lozim. Shuningdek, tintuv o'tkazishga ruxsat berishda zamonaviy elektron hujjat almashinuv tizimini tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Tergovchi, surishtiruvchi, prokuror va sudya jinoyat ishiga oid barcha holatlarni har tomonlama, to'liq, xolis va sinchkovlik bilan o'rganib chiqish asosida, qonun va huquqiy ongga tayangan holda ichki ishonchiga ko'ra dalillarga baho beradi. Shu bilan birga, u mustaqil ravishda tergov rejasi va versiyalarini ishlab chiqadi, tergov hamda boshqa protsessual harakatlarning ketma-ketligini belgilaydi. Tergov davomida yuzaga keladigan masalalarni to'g'ri hal eta olish tergovchining o'z vazifalarini samarali bajarishining muhim shartlaridan biridir. Tanlash imkoniyatining mavjud emasligi esa jinoyat ishini yuritayotgan shaxslarning o'z majburiyatlarini to'liq ado eta olmasligiga olib keladi.

Amaldagi qonunchilikni tahlil qilish natijasida tergovchining protsessual mustaqilligini ta'minlovchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: dalillarni ichki ishonch asosida baholash huquqi; protsessual qarorlarni mustaqil qabul qilish (sud yoki prokuror roziligi talab etiladigan holatlardan tashqari); prokuror ko'rsatmalariga nisbatan norozilik bildirish va yuqori turuvchi prokurorga murojaat qilish imkoniyati; tashkilot va shaxslar uchun majburiy topshiriqlar berish vakolati; tergov va boshqa protsessual harakatlar yuzasidan javobgarlikning mavjudligi.[4]

Shu bilan birga, jinoyat-protsessual qonunchilikda tergovchining protsessual mustaqilligi tushunchasi aniq va to'liq ifodalanmagan. Shu sababli mazkur masala yuzasidan yagona ilmiy yondashuv mavjud emas. Ayrim olimlar, xususan, V.V. Ulanov nazoratning mavjudligi tergovchining mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi deb hisoblaydi. Boshqa tadqiqotchilar, jumladan V.G. Mkrtchyan esa amaldagi normalar tergovchi mustaqilligini sezilarli darajada cheklaydi, degan fikrni ilgari suradi. Masalan, tergov yakunida prokuror tomonidan ayblov xulosasining tasdiqlanishi shunday cheklovlardan biri hisoblanadi.

Amaldagi tartibga ko'ra, prokuror ayblov xulosasini tasdiqlashi yoki ishni qo'shimcha tergovga qaytarishi mumkin. Bu esa tergovchining to'liq mustaqil faoliyat yuritishini cheklaydi. Umuman olganda, tergovchi prokuror va suddan butunlay mustaqil bo'la olmaydi. Shu bilan birga, prokuror va sud nazorati fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi va ehtimoliy suiiste'molliklarning oldini oladi.[5]

Tergovchining mustaqilligini bir necha yo'nalishlarda ko'rish mumkin: u turli davlat organlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy ta'siridan xoli bo'lishi kerak; shuningdek, o'zi faoliyat yuritayotgan organ ichidagi yuqori lavozimli rahbarlarning asossiz aralashuvidan ham mustaqil bo'lishi lozim. Shu bilan birga, ayrim olimlar tergovchi ijro hokimiyati tizimidan tashqarida faoliyat yuritishi kerakligini ham ta'kidlaydi.

Biroq, hatto alohida mustaqil tergov organi tashkil etilgan taqdirda ham, undagi ierarxik boshqaruv tizimi tufayli to'liq mustaqillikni ta'minlash murakkab masala bo'lib qoladi. Tergovchining kasbiy nufuzi esa uning moddiy-texnik ta'minoti, ish sharoiti va mehnat yuklamasi bilan chambarchas bog'liq. Amaliyotda ko'plab tergovchilar ish hajmining ortiqligidan shikoyat qilmoqda, bu esa ularning faoliyat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.[6]

Amaldagi tizimda tergovchi ko'pincha yuqori turuvchi rahbarlar roziligi bilan ish yurituvchi va muhim qarorlarni qabul qilishda prokuror yoki sudga bog'liq shaxs sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa byurokratik to'siqlarni kuchaytirib, ish yuritish samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli tergov tizimini takomillashtirishda, xususan, tergovchining maqomini belgilashda bir qator muhim masalalarga e'tibor qaratish zarur. Jumladan, har bir tergovchiga to'g'ri keladigan ish hajmini normativ tartibga solish dolzarb vazifalardan biridir.

Prokuror nazorati esa davlat faoliyatining mustaqil va o'ziga xos turi hisoblanib, uni faqat prokuratura organlari amalga oshiradi. Prokuror nazorati davlat nomidan olib borilib, qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini ta'minlashga qaratilgan.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, tergovchi faoliyati ustidan nazoratni uning bevosita rahbari va prokuror amalga oshiradi. Prokuror tergovchining qarorlarini tekshiradi, shikoyatlarni ko'rib chiqadi va zarurat tug'ilganda ularni bekor qiladi. Tergovchi esa bunday qarorlarga nisbatan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilish huquqiga ega, biroq yakuniy

qarorni yana prokuror qabul qiladi. Bu holat jarayonga mustaqil uchinchi tomon jalb etilmasligini ko'rsatadi.[7]

Prokuror va tergovchi faoliyatining umumiy maqsadlari mavjud bo'lsa-da, ularning vakolatlari teng emas. Prokuror tergov jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, jinoyat ishini bir organidan boshqasiga o'tkazish, tergovchini chetlatish, ayblov xulosasini tasdiqlash yoki ishni qo'shimcha tergovga qaytarish kabi vakolatlarni amalga oshiradi.

Shu bilan birga, prokuror nazorati tergovchining mustaqilligini cheklovchi emas, balki qonuniyligni ta'minlovchi vosita sifatida qaralishi lozim. Agar tergovchi o'z faoliyatini qonun talablariga muvofiq olib borsam, prokuror nazorati uning ishiga sezilarli darajada aralashmaydi.

Tergovchi ayrim hollarda prokuror ko'rsatmalariga rozi bo'lmasa, ularni yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilish huquqiga ega. Biroq amaliyotda bunday shikoyatlar tergovchi uchun salbiy oqibatlar olib kelishi mumkin. Hatto yuqori prokuror uning shikoyatini qanoatlantirgan taqdirda ham, tergovchi yana o'sha prokuror nazorati ostida ishlashda davom etadi.

Bundan tashqari, jinoyat protsessida shikoyatlarni manfaatdor bo'lmagan mustaqil organ — sud tomonidan ko'rib chiqish samaraliroq hisoblanadi. Sud nafaqat noqonuniy qarorlarni bekor qilishi, balki mas'ul shaxslarga nisbatan tegishli choralar ko'rish haqida ham taqdimnoma kiritishi lozim.[8]

Amaliyotda tergovchilar o'zlari ham ba'zan mustaqillikni cheklab qo'yishadi, ya'ni mustahkam ichki pozitsiyaga ega bo'lmaganlari sababli yuqori turuvchi mansabdor shaxslarning og'zaki ko'rsatmalariga amal qilishadi. Bu esa norasmiy boshqaruv amaliyotining shakllanishiga olib keladi.

Prokurorning jinoyat ishini sudga yuborishdagi roli ham muhimdir. Chunki sudda ish faqat prokuror tasdiqlagan ayblov xulosasi mavjud bo'lgandagina ko'rib chiqiladi. Shu sababli ayrim olimlar prokurorning tergov qilish va ayblov xulosasini tasdiqlash vakolatlarini ajratish zarurligini ta'kidlaydilar.

Dastlabki tergovda sud nazorati esa ishtirokchilarning huquqlarini himoya qilish va protsessual harakatlarning qonuniyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sud nazoratining haddan tashqari kengayishi tergovchining mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.[9]

XULOSA

Umuman olganda, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlar o'zaro huquq va majburiyatlarga asoslanadi. Fuqarolarning huquq va erkinliklari daxlsiz bo'lib, ularni sud qarorisiz cheklash mumkin emas. Shu bilan birga, har bir shaxs o'z huquqlarini amalga oshirishda jamiyat va davlat manfaatlarini ham hisobga olishi zarur.

Dastlabki tergovda sud nazoratini yanada kuchaytirish maqsadida, xususan, ushlab turish va garov ehtiyot choralari faqat sud qarori asosida qo'llash tartibini joriy etish muhim hisoblanadi. Bu jinoyat ishlarining beryoqlama ko'rib chiqilishining oldini oladi va protsessual adolatni ta'minlaydi. Shu bois, mazkur sohada chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha asosli takliflar ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fokov A.P. Sudebniy kontrol v Rossii i ego perspektivalari // «Rossiyskiy sudya» jurnali, 2002 yil, №9, 3-bet.
2. Inog'omjonova Z.F. Jinoyat protsessida sud nazorati va uni amalga oshirish muammolari // yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2006. – 68-bet.
3. Shodiyev G'. Jinoyat ishlarini sudga qadar yuritish bosqichida sud nazoratining obykti sifatida shaxs huquq va erkinliklarini cheklovchi tergov harakatlari // “Sud-huquq islohotlari: hozirgi holati va takomillashtirish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDYUI, 2007. – 132-bet.
4. Ryabinina T.K. Sud majlisini tayinlash bosqichi jinoyat-protsessual qonunchilik nuqtai nazaridan: nazariya va amaliyot muammolari hamda ularning yechimlari // «Rossiyskiy sudya», 2004 yil, №7, 6-bet; shuningdek, muallifning Jinoyat ishlarini sudda sud muhokamasigacha ko'rib chiqish tartibi mavzusidagi dissertatsiya avtoreferati. – Voronej, 2005. – 23 bet.
5. Foynitskiy I.Ya. Jinoyat sudlov yuritish kursi. – Sankt-Peterburg, 1996. – 449-bet.
6. Inog'omjonova Z.F., To'laganova G.Z. Jinoyat protsessi ishtirokchilari (o'quv qo'llanma). – Toshkent: TDYU, 2006. – 45-bet.
7. To'laganova G.Z. Dastlabki tergov bosqichida shaxs huquqlarini ta'minlash masalalari (monografiya). – Toshkent: TDYU, 2021. – 20-bet.
8. Voskobitova L.A. Ayblov yoki ayblovga moyillik muammosi? // “Rossiya huquqining dolzarb muammolari” jurnali, 2014 yil, №3, 455–462-betlar.
9. Kolokolov N.A. “Katta qarama-qarshilik”: tergovchi va prokuror o'rtasidagi munosabatlar // “Rossiya IIV Moskva universiteti axborotnomasi”, 2014 yil, №10.